



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-martdagi 3/15-4/1-2620-son ijrosi yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida amalga oshirilgan ishlar
MA'LUMOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori bilan tasdiqlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar kalendar rejasining 6-bandiga muvofiq, **2025-yil 22-mart kuni** respublikamizda "**Jahon suv kuni**" nishonlanishi belgilangan.


Shu munosabat bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasi professor o'qituvchilari ishtirokida shu sanaga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.



Tadbirda shu sanaga oid ma'lumotlarni, aynan nima uchun "**Jahon suv kuni**" dunyo bo'ylab har yili 22-martda nishonlanishi, ichimlik suvlarini asrab avaylash, suvlarni bekorga isrof qilmaslik, yer yuzidagi okean, dengiz va daryo suvlari bo'yicha Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi Mardonov Sherzod tomonidan ma'lumotlar berib o'tildi.



Tadbirda shuningdek, kafedramiz o'qituvchilari tomonidan "Jahon suv kuni" ning mazmun mohiyati, okean suvlarini ichimlik suvlariga aylantirish, dunyodagi eng katta daryolar to'g'risida Biologiya yo'nalishi talabalariga yetarlicha ma'lumotlar berildi. Tadbirda Biologiya yo'nalishi talabalari ham faol ishtirok etib, o'zlari qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.



**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektori:**

B.Jo'rayev

/Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani:

B.Iraliyev

**Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari
texnologiyalari kafedrası mudiri:**

M.Hamroyeva

Kotiba :

D. Sodiqova



[Handwritten signature]

[Handwritten signature]